

MILLIY STANDARTLAR BO‘YICHA MAJBURIYATLARNING  
O‘ZGARISHI VA TUGATILISHI HOLATLARINING BUXGALTERIYA  
HISOBIDA AKS ETTIRISH MUAMMOLARI

**Muqumov Zafar Avazmuratovich**

*Associate Professor of "International school of finance technology and  
science", Candidate of Economic Sciences, Uzbekistan*

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarning moliyaviy holati va moliyaviy barqarorligi birinchi navbatda majburiyatlar miqdorining o‘zgarishiga bog‘liq. Majburiyatlarning o‘zgarishi deganda, xo‘jalik faoliyatining yuridik, iqtisodiy yoki ularning buxgalteriyaga oid sof mazmunini o‘zgartiruvchi holatlarni tushunish lozim. Ushbu ta’rif o‘ziga quyidagi tushunchalarni qamrab oladi:

- 1) majburiyatlar yuridik mazmunining o‘zgarishi;
- 2) majburiyatlar iqtisodiy mazmunining o‘zgarishi;
- 3) majburiyatlarning buxgalteriya hisobiga doir mazmunining o‘zgarishi.

Majburiyatlarning yuridik mazmuni o‘zgarishi, agar tomonlar xo‘jalik faoliyati faktlari bitimlarini imzolagan sanadan keyin qarz miqdorini kutilayotgan natijalarga bog‘liqlikda tuzsalar, shartnomaning amaldagi harakatida kuchga ega bo‘lishi mumkin.

Qonun majburiyatlar miqdorini hisoblab chiqishning, teskari (aks) kuchga ega bo‘lgan yangi tartib o‘rnatish bilan majburiyatlarning miqdorini o‘zgartirishi mumkin. Masalan, qonunchilikdagi soliqlar va yig‘imlar haqidagi o‘zgarishlar korxonada byudjetga soliqlar to‘lash bo‘yicha avval mavjud bo‘lgan miqdorni o‘zgartirishi mumkin.

Ammo majburiyatlar miqdorining qarzlarni qaytarish muddatlariga amal qilinmaganida, g‘ayriqonuniy o‘zgarishlar yuz berishi mumkin. Qonunda boshqalarning pul mablag‘laridan foydalanishda ularni qonunga xilof ravishda ushlab turish, ularni qaytarishdagi boshqa kechiktirishlar, asossiz olish yoki boshqa shaxs hisobiga jamg‘arish ushbu mablag‘lar miqdoriga foizlar to‘lanishiga olib keladi, deya belgilangan. Foiz o‘lchamlari pul majburiyatlarini bajarish kunidagi bank hisob stavkasi yoki uning mos keluvchi qismiga ko‘ra belgilanadi. Qonun yoki shartnomada foizlarning boshqacha hajmi belgilanmagan bo‘lsa, ushbu qoida amal qilishi mumkin.

Korxonaning majburiyatlari iqtisodiy nuqtai nazardan mos holda olingan va taqdim etilgan qarzlarni ko‘rsatadi. Bunday qarzlarning mavjudligi hamisha o‘zida xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar daromad va xarajat manbalarini bildiradi. Majburiyatlarning iqtisodiy mazmunining o‘zgarishi shu tarzda ular tomonidan



shakllantirilgan moliyaviy natijalarning o'zgarishi bilan bog'liq bo'ladi. Masalan, agar firma o'ziga berilgan qarz yordamida oladigan daromad qarz beruvchiga to'lanadigan foizdan yuqori bo'lsa, bunda majburiyatning mavjudligi korxonaga uchun foydalidir. Agar aksincha, qarz bo'yicha to'lanadigan foiz olinadigan daromaddan ko'p bo'lsa – qarz iqtisodiy jihatdan foydali emas.

Ta'kidlash kerakki, tashkilotga taqdim etilgan va u olgan qarz deganda, debitorlik va kreditorlik qarzlari tushuniladi. Bu qarzlarning bo'yicha majburiyatlarga emas, shuningdek, xaridorlar, ta'minotchilar, turli debitor va kreditorlar, byudjet, ishchilar va boshqalar bilan hisob-kitoblar ham hisoblanadi. Shu bilan birga, daromad va xarajatlar deyilganda, bu yerda nafaqat olish va to'lash uchun hisoblanadigan summalarni, shuningdek, boy berilgan foydani ham inobatga olish kerak.

Masalan, ish beruvchining ish haqini to'lash bo'yicha qarzlari mehnat qonunchiligi normalariga muvofiq, uning summasiga foiz ajratmalarini ko'zda tutmaydi, bu qarzдорlik kamida oyiga ikki marta to'lanadi. Natijada ishchilar o'zlari ishlaydigan korxonani ish haqlari miqdoriga doimiy asosda qarz qilib qo'yadilar. Keyin byudjet oldida majburiyatlarning o'zgarishi, mabodo, pul qadrsizlanishi yuz bersa, soliq to'lovchilar uchun foydali, davlat byudjeti uchun esa foydasizdir.

Majburiyatlarning buxgalteriyaga oid mazmunini o'zgartirish - bu buxgalteriya hisobidagi tartibining almashishi va buxgalteriya hisobotlarida paydo bo'lgan vaqtdan tugatilgan vaqtiga qadar aks ettirilishidir. Bu holatda majburiyatlarni hisobga olish tartibigina, ya'ni uning sof buxgalteriya hisobiga oid mazmunigina o'zgaradi. Shunday qilib, majburiyatlarning buxgalteriyaga oid o'zgarishlari deyilganda, buxgalteriya hisobi schyotlarida majburiyatlar haqidagi axborotlarning aks etish metodikasi almashishini tushunish kerak bo'ladi.

Buxgalteriya hisobida majburiyatlarning o'zgarishi turli xil sabablarga ko'ra yuz beradi. Quyida buxgalteriya balansida majburiyatlarning ko'payish yoki kamayish sabablari keltirilgan (1-jadval).

**1-jadval**

**Buxgalteriya balansida majburiyatlarning o'zgarish sabablari<sup>6</sup>**

Balans moddasi	Sabablar	
	Ko'payish	Kamayish
<b>Uzoq muddatli majburiyatlar</b>		
Qarzlarning va	Bank krediti yoki qarz	Agarda uzoq

<sup>6</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



kreditlar	shartnomasiga ko'ra hisobot yili oxirida foizlarning hisoblanishi	muddatli kredit yoki qarzni uzish muddati hisobot sanasidan so'ng 12 oy ichida bo'lsa, schyotlar bo'yicha qoldiqlar qisqa muddatli majburiyatga o'tkaziladi
Boshqa uzoq muddatli majburiyatlar	Uzoq muddatli qarz yoki kreditning olinishi	Qarz yoki kreditning qaytarilishi
<b>Qisqa muddatli majburiyatlar</b>		
Qarzlarning va kreditlar	Hisobot davri oxirida uziladigan kredit va qarzlarning hisoblanishi	Qarz va kreditlarning qaytarilishi
Kreditor qarzlari	Qarzdorlikning yuzaga kelishi (sotib olingan mahsulot, ish, xizmat uchun, ish haqi, byudjet va hokazo)	Qarzni uzilishi, to'lash muddati tugaganidan keyin qarzni voz kechilishi
Ta'rischilarga dividendlarni to'lash bo'yicha qarzdorlik	Ta'rischilarga dividend hisoblanishi, ammo to'lanmasligi	Dividendlarning to'lanishi
Kelgusi davr daromadlari	Hisobot davrida olingan, ammo keyingi hisobot davrlariga taalluqli daromadlarning yuzaga kelishi	Muddat tugaganidan so'ng xarajatlarga o'tkazilishi
Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari rezervi	Kelgusi davr xarajatlari va to'lovlari rezervining yuzaga kelishi: - ishchilarga ta'til haqi hisoblanishi; - ko'p yillik xizmati uchun mukofotlash; - va boshqalar.	Rezervga olingan mablag'larning ishlatilishi
Boshqa qisqa muddatli	Majburiyatlarning yuzaga kelishi	Majburiyatlarning uzilishi



majburiyatlar		
---------------	--	--

Majburiyatlar o'zgarishini buxgalteriya hisobida o'z vaqtida va aniq aks ettirish juda muhim masalalar qatoriga kiradi. Fikrimizcha, buxgalteriya hisobida majburiyatlarning o'zgarishini aks ettirishda quyidagilarga rioya qilish kerak:

- buxgalteriya hisobining birlamchi hujjatlarida xo'jalik muomalalarini to'g'ri aks ettirish;

- majburiyatlarning yuzaga kelishi va tugatilishi vaqtini buxgalteriya hujjatlarida aniq sanada qayd etib borish;

- buxgalteriya balansida majburiyatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni aniq ko'rsatish;

- buxgalteriya balansi hamda debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi ma'lumotnomadagi ko'rsatkichlarning bir-biriga mos kelishini ta'minlash;

- moliyaviy hisobotning tushuntirish xatida majburiyatlarning yuzaga kelishi va tugatilishi holatlari, asosiy kreditorlar to'g'risida ma'lumotlarni berib o'tish.

Yuqorida qayd etib o'tilgan holatlarga keng e'tibor qaratish va ta'bir joiz bo'lsa, ularning amal qilinishini ta'minlash, fikrimizcha, buxgalteriya hisobida majburiyatlar o'zgarishi holatlari to'g'risidagi axborotlarning aniqligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Amaldagi qonunchilikka binoan uzoq muddatli majburiyatlar to'lanishi asnosida asta-sekin joriy majburiyatlarga o'tkazib boriladi. Masalan, mol yetkazib beruvchilarga bo'lgan uzoq muddatli qarzning asta-sekinlik bilan uzilishi uning bir qismini joriy majburiyatlarga o'tkazilishi bilan amalga oshiriladi:

D-t 7010-«Mol yetkazib beruvchilarga to'lanadigan schyotlar» - uzoq muddatli qismi;

K-t 6230-«Mol yetkazib beruvchilarga to'lanadigan schyotlar» - joriy qismi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 15 oktyabrdagi 444-sonli Qarori bilan tasdiqlangan "Mahsulot (ishlar, xizmatlar) ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida Nizom"ga binoan debitor va kreditor qarzlari muddati o'tganidan so'ng hisobdan chiqarilsa, u moliyaviy natijaga ta'sir qiladi.

Buxgalteriya hisobida bu muomala quyidagicha yozuv bilan aks ettiriladi:

Muddati o'tgan debitorlik qarzining hisobdan chiqarilishi:

Debet -9430-«Boshqa operatsion xarajatlar»;

Kredit - Debitorlik qarzlarni hisobga oluvchi schyotlar.



Muddati o'tgan kreditorlik qarzining hisobdan chiqarilishi:

Debet - Debitorlik qarzlarini hisobga oluvchi schyotlar;

Kredit 9360-“Kreditorlik va deponentlik qarzlarini hisobdan chiqarishdan olingan daromadlar”

Buxgalteriya hisobotlarida korxonaning majburiyatlari haqidagi axborotlarni ko'rsatish, metodologik yo'llarini tanlash uning moliyaviy holati tahlilining hamma yo'nalishlari natijalarini aniqlaydi. Birinchi navbatda, majburiyatlar hisobining o'rnatilgan tartibi xo'jalik yurituvchi sub'ektning to'lov qobiliyatini baholash natijalariga ta'sir etadi.

Korxonaning to'lov qobiliyatini baholash bilan biz uning eng likvidli mulki hajmini kreditor qarzdorligi bilan taqqoslaymiz. Kreditor qarzdorlik uzoq muddatli (bir yildan ortiq) va qisqa muddatli (bir yildan kam)ga bo'linadi. To'lov qobiliyatini hisob-kitob qismi uchun qisqa muddatli qarzdorlikkina e'tiborga olinadi, ya'ni aktivlar joriy yilning joriy to'lovlarinigina ta'minlashi kerak. Biroq buxgalteriya hisobida u yoki bu majburiyatni qanday aks ettirishiga qarab, firmaning to'lov qobiliyati keskin o'zgaradi. Shu bilan birga, amaliyotda to'lanish muddati avvaliga bir yilgacha bo'lgan qarzlar xato tufayli hamda ataylabdan (ko'pchilik holatlarda) to'lovlangunga qadar balansda uzoq muddatli deb ko'rsatiladi, shu bilan birga, to'lanish muddatiga bir yildan kam vaqt qolgan bo'lsada, ular qisqa muddatli majburiyatlar qismiga “otkazilmaydi”. Hisobotlarning shunga o'xshash falsifikatsiyasi tufayli buxgalteriya balansi ma'lumotlari korxonaning to'lov qobiliyati ko'rsatkichlaridan jiddiy farq qilishi mumkin.

Umuman aytish mumkinki, korxonaning majburiyati buxgalteriya hisobi metodikasining uning rentabelligiga ta'siri shunda ko'rinadiki, korxonaning daromadlari aslida hisobot davrida yuzaga kelgan kontragentlari majburiyatlarining summasini, xarajatlar esa korxonaning o'z kontragentlari oldidagi majburiyatlari summasini ko'rsatadi.

Bu yerda birinchi navbatda buxgalteriya majburiyatlarining korxonaning daromadlari va xarajatlari bo'yicha buxgalteriya hisobotlarida ko'rsatilgan baholari ahamiyatga ega bo'ladi. Va birinchi navbatda, bu gumonli qarzlar bo'yicha rezervni ajratmalardagi majburiyatlar buxgalteriya bahosi o'zgarishlariga bog'liq bo'ladi.

Majburiyatlarning buxgalteriyaga oid mazmunining o'zgarishi, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni moliyalashtirishning jalb qilingan manbalariga bog'liqlik darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar o'zgarish omili sifatida ham chiqadi. Korxonaning mablag'larining u yoki bu manbalari xususiy yoki jalb etilganga borib taqalishi moliyaviy hisobotlar ahamiyatini oldindan



belgilaydi. Masalan, maqsadli moliyalashtirish xususiy mablag‘lar tarkibiga emas, balki jalb qilinganlar tarkibiga qo‘shilgan (kiritilgan) bo‘lishi mumkin. Nisbiylik shuningdek, mablag‘larning xususiy manbalari elementi sifatida yoki kreditorlik qarzi sifatida ko‘rilishi mumkin bo‘lgan rezervlar balansidagi passiv bilan xarakterlanadi; birinchi holatda yuridik statusga, ikkinchisida – iqtisodiy nuqtai nazar – rezervga aksent qilinadi, bu aktivlarning kutilayotgan (oldinda turgan) chiqib ketishi, xuddi kredit qarzini to‘lashdagi kabi o‘sha (buxgalteriya nuqtai nazaridan) aktivlarni chaqiradi.

Debitorlik qarzi to‘langanligi faktining aks ettirilishi daromad miqdorini o‘zgartirmaydi, chunki moliyaviy natijalarning tan olinishi majburiyatlar dinamikasi bilan aniqlanadi, real pul oqimi to‘lov qobiliyatining o‘shishini bildiradi. Haqiqatda olingan pul so‘zsiz, debitorlarning qarzigaga qaraganda sezilarli ravishda likvidli bo‘ladi.

Korxonada xususiy mablag‘ manbalari hajmi va jalb qilingan mablag‘ manbalari hajmlarining o‘zaro nisbati moliyaviy leverij koeffitsientida o‘z aksini topadi. Moliyaviy leverijning koeffitsientini oshira borib, kreditorlik qarzdorligini to‘lash to‘lov qobiliyati koeffitsienti qiymatiga bog‘liq holda qarzni to‘lash faktiga qadar ko‘payish tomonga ma‘lumotlarni o‘zgartiradi.

Bu holda, qarz to‘langanlik faktiga qadar to‘lov qobiliyati koeffitsienti ijobiy xarakterga ( $>1$ ) ega bo‘ladi, bunda koeffitsientning kasr surati va maxraji, qarzni to‘lash miqdorlariga teng, agar qarz to‘lagunga qadar to‘lov qobiliyati salbiy ( $< 1$ ) xarakter kasb etsa, uning qiymati ortadi, qarzni to‘lash uning qiymatini kamaytiradi. Bu bog‘liqlik qabul qilingan shartli belgilar yordamida aks ettiriladi. Masalan, to‘lov qobiliyati koeffitsienti suratini  $A$  deb va maxrajini  $V$  deb olamiz. Bunda to‘lov qobiliyati koeffitsienti  $K=A/V$  ga teng bo‘ladi.

Tugatiladigan majburiyat summasini shartli  $N$  deb belgilaymiz. Bunda qarzni to‘lash faktidan keyin hisoblanadigan to‘lov qobiliyati  $K= (A-N)/(B-N)$  deb ifodalanib, biz navbatdagi bog‘liqlik haqida gapira olamiz: agar qarz to‘langunga qadar  $A<B$  bo‘lsa, unda  $K<K$ ; va aksincha, agar qarz to‘langunga qadar  $A>B$  bo‘lsa,  $K>K$  bo‘ladi.

Masalan, “ABC” MChJning 2022 yil 1 yanvar holatida to‘lov qobiliyati koeffitsientining suratini tashkil etuvchi aylanma aktivlari summasi  $A = 1131$  mlrd. so‘m, uning maxrajini tashkil etuvchi majburiyatlar summasi  $V = 1489$  mlrd. so‘m. Shunday qilib,  $K = 1131/ 1489= 0,75$ . Korxonada o‘zining 500 mln. so‘mga teng ( $N$ ) qarzini to‘laydi. Bu holda  $A-N = 631$ ;  $B-N = 989$ ,  $K = 631/ 989 = 0,63$ .



Keyin qarz to'langunga qadar  $N = 500$ ,  $A = 1131$ ,  $B = 1489$ , mos holda  $K = 1,31$  bo'lgan teskari vaziyatni tasavvur qilamiz.

Qarz to'langanidan keyin  $K = 989/631 = 1,56$ .

Ushbu kuzatuv bizni o'ta qiziqarli xulosaga olib keladi: agar xo'jalik yurituvchi sub'ektning mulki ko'p va qarzi oz bo'lsa, qarzni uzish jarayonida, to'lov qobiliyati yana ham kuchli bo'la boradi. Agar aksincha, tashkilotning mulki kam, qarzi esa ko'p bo'lsa, uning qaytarilishi bankrotlikni bildiradi.

Tomonlarning kelishuviga ko'ra, majburiyat o'rniga o'rin berish (pul to'lash, mol-mulkini berish va b.) yo'li bilan ham tugatilishi mumkin. O'rniga o'rin beriladigan narsaning o'lchami, muddati va berish tartibi tomonlar tomonidan belgilanadi. O'rniga o'rin berishning iqtisodiy ma'nosi shundaki, majburiyat bo'yicha qarzdor uni bajarishdan bosh tortsa, ushbu bosh tortish bilan bog'liq holda kreditorning zararini qoplaydi. Masalan, biz xaridor rovida chiqadigan ta'minot haqida shartnoma tuzamiz. Shartnomaga ko'ra, ta'minotchi bizga belgilangan muddatda va belgilangan bahoda ma'lum miqdorda tovar olib kelib berish majburiyatini oladi. Lekin biz iloji boricha ta'minotchi bilan shartnoma tuzmasdan ushbu tovarni olish hisobini qilamiz, boshqa tomondan esa shu tariqa, olib kelinadigan tovarga to'lash uchun zarur bo'ladigan bo'sh pul mablag'lari hajmiga ega bo'lish uchun o'zimizning pul oqimimizni rejalashtiramiz. Ta'minotchining o'z majburiyatini bajarishdan bosh tortishi biz uchun tovarni vaqtida olmaslik (mumkin bo'lgan tovar oborotining qisqarishi) va tovar uchun to'lashga mo'ljallangan puldan foydalanmaslik (pul mablag'lari vaqtinchalik qimmatliklarining ziyon ko'rishi) bilan bog'liq zarar ko'rilganligini bildiradi. Ushbu zararlarni qoplash uchun biz masalan, ma'lum miqdordagi pul mablag'laridan voz kechilishini talab qilamiz. Shu tarzda, buxgalteriya hisobi maqsadlari uchun voz kechilgan pul miqdorini qo'shimcha sof daromad rejalashtirilmagan foyda olish, deb izohlash noto'g'ri bo'ladi. Voz kechish uchun talab kontragent bilan kelishilgan shartnoma majburiyatining bajarilmaganligiga ko'ra xarajatlarni to'lash majburiyatidir. Shu bilan birga, kreditor rozi bo'ladigan voz kechish uchun olinadigan pul miqdori quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. Kontragent majburiyatlarni bajarmaganligi munosabati bilan qilingan xarajatlardan kam;
2. Shu xarajatlarga teng;
3. Kontragent o'z majburiyatini bajarmaganligi bilan bog'liq xarajatlardan ko'p.



Tashkilot kontragenti majburiyatlarini bajarmaganligi tufayli qilingan xarajatlar bahosi va voz kechish uchun talab qilib olingan pul miqdori orasidagi farq bilan bog‘liq majburiyatning tugatilish faktini moliyaviy natija ko‘rsatadi.

Voz kechish uchun talab qilinganlik faktining moliyaviy natijasi xarakteri korxonax buxgalteriya xisobidagi moliyaviy ahvoli ta’siriga ham bog‘liq bo‘ladi.

Voz kechish uchun talab qilinadigan mablag‘ni beradigan qarzdor, agar uning berilganlik fakti ijobiy moliyaviy natijaga ega bo‘lsa, bu beriladigan qimmatliklarni baholash summasining dekapitallashuvini va daromad summasi kapitallashuvini bildiradi. Bu yerda asosiy natija to‘lov qobiliyati ko‘rsatkichlarining rentabellik va moliyaviy leverij ko‘rsatkichlarining o‘sishi bo‘ladi.

Teskari vaziyatda – majburiyatdan voz kechish talab qilinishi natijasida olingan zararda biz tashkilot moliyaviy holatining aytib o‘tilgan ko‘rsatkichlari pasayishiga ega bo‘lamiz.

Mos ravishda qarzdor tashkilotda ajratib ko‘rsatilgan ikki vaziyat kreditor tashkilot uchun bevosita qarama-qarshi ahamiyatga ega bo‘ladi.

Muddati yetib qolgan yoki ko‘rsatilmagan, yoki talab qilib olish vaqti bilan belgilanib, bir xildagi talablar yuz berganda, majburiyat to‘liq yoki qisman tugatiladi. Shu bilan birga, topshirish uchun tomonlardan birining arizasi yetarli bo‘ladi. Masalan, ta‘minotchilardan olingan tovar uchun 50000 so‘m hajmida qarzdorlik mavjud. Shu bilan birga, avans to‘langan ta‘minotchiga tashkilot uning oldidagi debitorlik qarzi – 50000 so‘m miqdorida chegirma berilgan edi. Ushbu holatda ta‘minotchiga ushbu talabni topshirish (bajarish) haqida arz qilish yetarli bo‘ladi.

Majburiyatlardan voz kechish fakti buxgalteriya hisobida, agar shartnomalarda avvalgi majburiyatlar miqdori bo‘yicha unga teng bo‘lmagan yangisi bilan almashtirilgandagina, o‘zining maxsus ifodasini topadi. Bu vaziyatda mavjud majburiyatlar o‘rtasida kreditorning zarari va qarzdorning daromadi (1), agar yangi majburiyatni baholash summasi avvalgisidan ortiq bo‘lsa (2) yoki kreditorning daromadi va qarzdorning zarari, agar yangi majburiyatning baholash summasi avvalgisining baholash summasidan yuqori bo‘lsa, aks ettiriladi.

Voz kechish – bu majburiyatlar summasini rekapitallash. Agar voz kechish bilan tugatilgan va yangi majburiyatlarning summasi bir-biriga mos tushsa, buxgalteriya hisobida voz kechishning ifodalanish fakti korxonaning moliyaviy holati hisobotda aks ettiriladigan voz kechish faktida umuman o‘zgartirmaydi. Voz kechishda majburiyatlar summasining o‘zgarishi mos ravishda rentabellik





va moliyaviy leverij ko'rsatkichlarini o'zgartiruvchi daromadlar miqdorining kamayishiga (dekapitalizatsiya) yoki o'sishiga (kapitallashish) olib keladi.

Ko'rib chiqilgan hodisa (holat) larda kreditor majburiyatining tugatilishi moliyaviy holat ko'rsatkichlari ahamiyati (qiymati)ni pasaytiruvchi daromadning dekapitallashuvi sifatida aks etadi, qarzdorda esa, birinchi navbatda rentabellik koeffitsienti va moliyaviy leverijning qiymatini orttiruvchi daromad kapitallashuvi sifatida ifodalanadi.

